



## The role of interactive methods in developing future history teachers' pedagogical speech

Sevara BOTIROVA<sup>1</sup>

Namangan State Pedagogical Institute

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received August 2024

Received in revised form  
15 September 2024

Accepted 15 October 2024

Available online

25 November 2024

**Keywords:**

interactive teaching  
methods,  
pedagogical speech,  
terminological dictionaries,  
communicative competence,  
educational modernization,  
speech structure,  
rhetoric,  
cognitive skills.

### ABSTRACT

This article provides a pedagogical analysis of the effectiveness of interactive teaching methods in addressing speech deficiencies among history teachers. Integrating interactive methods into higher education training equips future teachers with tools to handle pedagogical challenges they may encounter in their careers. The adoption of modern teaching methodologies in training history educators, especially the promotion of pedagogical technologies and tools that focus on developing written and oral communication skills, is essential for the modernization of education. Enhancing the speech abilities of future educators through interactive methods improves their engagement in both practical and theoretical educational processes as pedagogues.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss5-pp268-273>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining pedagogik nutqini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'рни

**Kalit so'zlar:**

interaktiv dars metodlari,  
pedagogik nutq,  
terminologik lug'atlar,  
kommunikativ  
kompetentsiya,  
ta'limiy  
modernizatsiyalashuv,  
nutqning tuzilishi,

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tarix fani o'qituvchilarining dars o'tishda nutqiy kamchiliklarini bartaraf etilishi uchun samarali interaktiv dars metodlaridan foydalanish masalasi borasida pedagogik tahlillar keltirilgan. Oliy ta'lim tizimida kadrlarga interaktiv metodlarning o'rgatilishi kelajak o'qituvchisining professional faoliyati davomida duch kelishi mumkin bo'lgan pedagogik nutq muammolari bilan ishlashlarida samara beradi. Tarix fani

<sup>1</sup> Head of the Department of Humanities, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Namangan State Pedagogical Institute. E-mail: sevarabotirova783@gmail.com

ritorika,  
kognitiv qobiliyatlar.

ixtisosligi bo'yicha kadrlar tayyorlashda zamonaviy dars metodologiyasini tatbiq etish, jumladan, yozma va og'zaki nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dars mashg'ulotlarini tashkillashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar va vositalarni keng targ'ib etish ta'limni modernizatsiyalashda muhim rol o'ynaydi. Interaktiv yondashuv orqali bo'lg'usi pedagog nutqini rivojlantirish ularning pedagog sifatidagi amaliy va nazariy ta'lim jarayonlariga kirishuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

## **Роль интерактивных методов в развитии педагогической речи будущих учителей истории**

### **АННОТАЦИЯ**

#### **Ключевые слова:**

интерактивные методы обучения,  
педагогическая речь,  
терминологические словари,  
коммуникативная компетентность,  
модернизация образования,  
структура речи,  
риторика,  
познавательные умения.

В данной статье представлен педагогический анализ вопроса использования эффективных интерактивных методов обучения для устранения речевых недостатков учителей истории. Обучение интерактивным методам персонала в период высшего образования эффективно решает педагогические проблемы, с которыми могут столкнуться будущие преподаватели в ходе своей профессиональной карьеры. Важную роль в модернизации образования играет внедрение современной методики преподавания при подготовке кадров по специальности история, в том числе широкое продвижение педагогических технологий и средств, направленных на организацию занятий, направленных на развитие навыков письменной и устной речи. Развитие речи будущего педагога посредством интерактивного подхода служит повышению его доступности к практическому и теоретическому образовательному процессу как педагогов.

### **KIRISH**

Zamonaviy tarix fani pedagoglarining kasbiy faoliyatida nutq so'zlash qobiliyatini rivojlantiruvchi interaktiv metodlar ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishga, ularning fikrlarini erkin ifoda etishga va muloqot qilishga undashga qaratilgan. Jarayon davomida o'qituvchi ham ta'lim oluvchilar bilan ishlashda moslashuvchanlik va faol kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lib boradi. Shunday bo'lsada, interaktiv metodlarni qo'llashni pedagogik tajribalardan o'tkazishsiz amaliyotga joriy etish qiyin kechishi mumkin. Tarix fanining bo'lajak kadrlari bo'lajak faoliyatlari oldidan nutqlarida kuzatiluvchi muammoli masalalarni hal etishda interaktiv metodlarni yaxshi o'zlashtirishlari kerak bo'ladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Mavzuning o'rganilishi yuzasidan qilingan ilmiy tadqiqotlar natijalari xorij tajribasida A.Leontyev M.Mitina, Y.Melibruda [1:139] kabi tadqiqotchilarning kitoblarida ifodalangan. Interaktiv dars metodologiyasi yordamida pedagogik nutq muammolari bilan ishlash masalalari yuzasidan yurtimizda N.Bekmirzayev N.Qung'urov R.Begmatov,

E.Tojiyev, N.Mahmudov, R.Jumaniyozov Kabi pedagoglarning ilmiy tadqiqotlarida yoritib berilgan. N.Ismoilovning “O’qituvchining pedagogik muloqoti” kitobida uchraydi. Ushbu kitobda ta’lim beruvchilarning pedagogik nutqini yaxshilovchi strategiyalar va pedagogik vositalar va uslublar keltirib o’tilgan. Shuningdek, A.Xujayev tomonidan yozilgan “Interaktiv ta’lim metodlari”, Sh.Murodovning “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” qo’llanmalarida ham mavzu yuzasidan innovatsion yondashuvlar berilgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mavzuni o’rganish davomida Namangan davlat pedagogika institutining tarix yo’nalishi talabalaridan ixtiyoriy ravishda 20 nafar talaba jalb etilib, interaktiv dasr metodlaridan “Ta’limiy munozara”, “Bahs” usuli, “Rolli o’yinlar” “Ishbilarmonli o’yinlar” kabi metodlar darslar mazmunidan kelib chiqib qo’llab ko’rildi. Talabalarning dars mavzularidagi nutqiy muammolari mashg’ulotlar avvalida va keyin berilgan maxsus anonim so’rovnomalar asosida o’rganilib, analiz va sintez qilindi. Dars mashg’ulotlarida taqdimotlar, multimedia vositalari, ko’rgazmali qurollar va boshqa pedagogik texnologiyalardan ham o’rinli foydalanildi. Samarali hisoblangan interaktiv dasr metodlari maqolada tavsiya etiladi.

### **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

Nutqiy ko’nikmalarning rivojlanishi tanqidiy fikrlash jarayoni bilan chambarchas bog’liq bo’lib, muayyan tarixiy xodisani idrok etishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu aloqadorlik o’quvchilarning bilimlarni ongli o’zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o’rinni egallaydi. [2:122]

Bugun biz pedagogik jarayonning amaliy jihatdan barcha jabhalarini qamrab olgan muhim o’zgarishlarning guvohi bo’lib turibmiz.

Yangi O’zbekiston ta’lim tizimida o’qituvchi shaxsini rivojlantirish, uning ijtimoiy moslashuv jarayonini osonlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan ta’lim-tarbiyaning yangi usullarini izlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion yechimlarni o’rganish ham bunda samarali vosita bo’la oladi.

Tarix fani o’qituvchisi yosh avlodga ma’lumotlar va bilimlarni yetkazuvchisidan ko’ra chuqurroq vazifalarni bajarishi kerak. Uning vazifalariga maktab o’quvchilarining dunyoqarashi, ideallarini fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirib borishi ham kiradi. O’zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o’tmishi, tarixi haqida bilim berish bilangina cheklanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma’naviy jihatdan komil fuqaro etib tarbiyalashga xizmat qiladi. [3:11] Umuman olganda, tarix fani mutaxassislarining nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishsiz uning o’rgatilishidagi vazifalarini amalga oshirish qiyin kechadi.

Mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniy me’rosini tiklash, har tomonlama chuqur tadqiq etish, buyuk allomalarimizning, ajdodlarimizning ilmiy, ma’naviy, diniy qarashlarini chuqur o’rganish va ommalashtirish borasida keng ko’lamli izlanishlar olib borilmoqda. Muqaddas qadamjolarini obodonlashtirish, yoshlarni ezgu an’anaviy ruhda ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tarix darslarida muntazam ravishda o’quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini oshirish, nutq qobiliyatini rivojlantirishga xissa qo’shadigan quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin.

Tarix fanida mavzularni yoritish juda ko'plab nomlar, sanalar, tarixiy voqealar bilan bog'liq, shuning uchun o'quvchilar va ta'lim beruvchilar ham ayrim hollarda mavzuni bayon etishda, savollarga javob berishda ularni chalkashtirib yuborish yoki xato qilishdan qo'rqadilar, ismlar yoki sanalarni unutadilar. Tarix fanini o'rganish esa aynan sanalarsiz, tarixiy voqealarsiz, tarixiy shaxslarsiz mumkin emas, albatta. Shuning uchun ham tarixiy materialni o'zlashtirishning eng muhim holatlaridan biri uni o'quvchi tomonidan aniq belgilangan, maxsus vaqtga moslashtirishdir.

Tarix darslarida rioya qilinishi kerak bo'lgan zaruriy shartlar: hikoyalarda aniq tarixiy sanalar va hodisalar, real tarixiy qahramonlardan foydalanish. Shuningdek, o'quvchilardan tarixiy personajlar o'rniga o'zlarini qo'yib ko'rishlarini so'rashingiz (taklif qilishingiz), shuningdek, jahon tarixida tub burilishlarga sabab bo'lgan muhim qarorlarga nisbatan o'zlarida yana qanday muqobil variantlarini taklif eta olishlarini so'ralishi mumkin. Mazkur usul o'quvchini muayyan tarixiy bir davrni to'liq anglay olishga, u yoki bu tarixiy qahramon bo'lgan shaxsni idrok etishga, sabab natija munosabatlarini tushuna olishga o'rgatadi.

Zamonaviy maktabning asosiy vazifasi turli xil ijtimoiy sharoitlarga moslasha oladigan yuqori madaniyat va rivojlangan muloqot qobiliyatlariga ega bo'lgan lingvistik shaxsni shakllantirishdir. Shu munosabat bilan nutq qobiliyatlari va shakllanishining rivojlantiruvchilik roli oshib boradi.

O'quvchilarning kommunikativ va kognitiv qiziqishlari, rivojlangan nutq o'z-o'zidan qimmatli material sifatida nutqni rivojlantirish shaxsni rivojlantirishning markaziy vazifasiga aylanadi. Bu muhim vazifani faqat rus tili va adabiyoti darslarida emas, balki tarix darslarida ham nazarda tutish kerak. Tarixni o'rganish jarayoniga o'quvchi avvalo berilgan savolga javob berar ekan o'zining shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lishni bilishi, o'z javoblarini asoslashda tarixiy manbalarga suyana olishi, o'zining dunyoqarashi va prinsiplariga ega bo'lishi va ularni tarixiy voqea-hodisalarni to'g'ri tahlil qila olishni bilishi kerak.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar bilan og'zaki muloqot olib borishga alohida e'tibor qaratishi zarur: o'quvchilarga savollar berish, savollarga berilgan javoblarni kuzatib borib, sinfdagi barcha o'quvchilar e'tiborini yo'naltiruvchi savollar berib, mavzuni yoritishga qaratishi, dars mavzusini alohida kichik qismlarga bo'lib, ularga qisqa tavsiflar berishi, tarixiy voqealarning yorqin tavsifini kiritishi ham foydalidir va bu maktab o'quvchilarida nutq va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Interfaol dars uslublaridan foydalanib, o'quvchilar bilan og'zaki dialog o'tkazish, ya'ni o'quvchilarga savollar berib, mazkur savollarga ularning bergan javoblarini tahlil etish, o'quvchilarning o'z fikrlarini, nuqtayi nazarlarini, erkin bayon etishga imkoniyat yaratish kerak. Shunday qilinsa o'quvchilar nafaqat dars jarayonida, balki kelajak hayotlarida ham muhim o'rin tutadigan nutq ko'nikmalari rivojlanib boradi.

O'quvchilarda nutq va nutqiy ko'nikmalarning muvafaqqiyatli rivojlantirishda "Rolli o'yinlar" "Ishbilarmonli o'yinlar" kabi usullar ham yordam beradi. Professoro 'qituvchining vazifasi bilim olishning qulay yo'lini ko'rsatib, talabalarga uni bajartirishdan iborat. [4:64] Bunda o'quvchilar kelajak hayot va faoliyatlarida uchrab turadigan turli vaziyatlarda o'zlarini turli "rollar" da namoyon etib, o'sha vaziyatda o'zini qanday tutish, muammoni real hal etish, o'yindagi rolga hayotda qanday talablar qo'yilishi ob'ektiv baholay olishga o'rganadi.

“Ta’limiy munozara” usuli ham o’quvchilarning malakali, asosli nutqini shakllantirishga yordam beradigan usullardan biridir. Mazkur usulning ma’nosi muayyan muammo bo’yicha fikr almashishdir. Munozara orqali o’quvchilar yangi bilimlarga ega bo’ladilar, fikr almashadilar, o’z fikrlarini asoslaydilar, himoya qilishga o’rganadilar, muayyan muammoni hal etishda, o’zgalar bilan muhokama qilar ekanlar barcha fanlardan olayotgan bilimlari, nutqiy ko’nikmalari naqadar zarur bo’lishini anglab yetadilar, o’z fikrini himoya qilibgina qolmasdan, o’zgalar fikrini, ya’ni sinfdosh, tengdoshlarini fikrini ham e’tiborga olishga hurmat qilishga o’rganib boradilar.

O’qituvchi O’zbekiston tarixini o’qitishda “Baxs” usulidan foydalanishi ham yaxshi samara beradi. Bu usulda sinf o’quvchilari avvaldan 2 yoki 3 guruhga bo’linadilar. 1-guruh muammoni hal etishda o’z nuqtai nazarini himoya qiladi, 2-guruh o’quvchilari esa ular fikrliriga qarama-qarshi bo’lgan variantni yoki muqobil variantni taklif etib, o’z fikrlarining to’g’riligini baxs orqali isbotlashga harakat qiladilar.

Monologik nutqni rivojlantirish uchun berilgan savolga to’laqonli, batafsil, atroflicha javob berishga o’rgatish, muayyan bir tarixiy hodisaning keng miqyosli so’zlab tasvirlab berish, berilgan mavzu yuzasidan og’zaki ma’ruza tayyorlash, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish ham katta yordam beradi.

Tarix o’qitish jarayonida dastlabki bosqichda o’qituvchi o’quvchilarni tarixiy matnni o’qib chiqib uni so’zlab berishga o’rgatishi ham foydali bo’lib, u xotirani rivojlantirishga yordam beradi, nutq ko’nikmalarini, fikrlarni tushunarli va to’liq bayon eta olish malakasini shakllantiradi.

Og’zaki nutq ustida ishlash turli xil rasmlar, tasvirlardan turli tarixiy vaziyatlarni ifodalovchi rasmlardan foydalangan holda bu manzaraning og’zaki rasm tarzida bayon etish, gaplar tuzish, hikoya qilib berish kabilarni o’z ichiga oladi.

Tarixiy materialni tizimlashtirish-tasniflashga yordam beradigan mantiqiy diagramma va jadvallardan foydalanish, tasvirga asoslangan hikoya ayniqsa, o’quvchilar muayyan bir tarixiy qahramon haqida jumlar tuzishga, uning jasoratini, fodokorona mehnatini mukammal tasvirlashga yordam beradi.

So’zlab berishga o’rgatish ham maktab o’quvchilarida nutq ko’nikmalarni rivojlantirishning muhim vositasidan biridir. O’quvchilar matnni o’qishlari tarixiy so’zlarni, zamonaviy iboralarni tanlashlari, matn mazmunini batafsil, tushunarli bayon etib berishlari kerak.

O’quvchilarning kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda yana bir muhim vosita – bu so’zlarning lug’at zahirasi. Lug’at o’rganish matn bo’yicha eslatma olish, javob rejasi yoki maqola tayyorlash, insho, kompozitsiya, eslatmalar tuzish, jadvallarni to’ldirish va hakoazolarni o’rganib borishlariga yordam beradi, tushunchalar bilan ishlash, iboralarni o’z o’rnida ishlata olish ko’nikmasini shakllantirishga olib keladi, o’quvchining so’z boyligini boyitadi.

Tarix o’qitishda lug’at bilan ishlash fanni yaqindan o’rganish jarayonidir- darsda nafaqat javob berayotgan paytda tarixiy atamalardan foydalanish, balki kundalik nutqda yangi so’zlardan foydalanishga ham to’g’ri keladi. O’qituvchi dars jarayonida o’quvchilar e’tiborini savodli nutq va xatolarni o’z vaqtida tuzatish zarurligiga qaratish, tilimizning yorqinligini ko’rsata bilish muhimdir. O’quvchilar qog’ozdan o’qimasligi uchun matnni oson eslab qolishlari uchun o’z nutqining umumiy rejasini avvaldan belgilab olishi kerak. Uning nutqi tushunarli, malakali va to’g’ri bo’lishi kerak, shunda u tinglovchiga tushunarli

bo'ladi, rostgo'ylik va samimiylik bilan umumqabul qilingan xulq-atvor va ahloq normalariga rioya etgan holda bayon etish kerak.

Muloqot jarayonida tinglash madaniyatiga ham rioya qilish zarur, shunda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot – fikr bildirish, so'zlash, fikr almashish, o'z nuqtai nazarini bildirish, himoya qilish, o'zgalar fikrini ham hurmatlash yuzaga kelib, muloqot jarayoni- ya'ni nutqiy munosabatlarda kutilgan natijaga erishiladi, ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishiladi, o'sib kelayotgan yosh avlod jamiyatda o'ziga munosib o'rniga, mavqeiga, mustaqil fikriga ega bo'ladi.

### **XULOSA**

Интерактив yondashuv orqali tarix fanini o'rgatish ijobiy natijalarni ta'minlashi uchun ta'lim texnikasi va kasbiy talablarga rioya qilinishi zarurat hisoblanadi. Noto'g'ri yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar nutqiy muammolarning yanada kuchayishiga sabab bo'ladi. Pedagogik jarayonlarni o'rganuvchi sifatida faol kuzatib borish orqali talabalarda nutq tuzilishi va etikasi borasidagi nuqsonlar aniqlanib, kamayib boradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. [https://api.scienceweb.uz/storage/publication\\_files/2890/16989/658be67264409\\_\\_131-139+Xalilova+Sh.pdf](https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/2890/16989/658be67264409__131-139+Xalilova+Sh.pdf)
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
3. O'zbekiston tarixi [Matn]/R.Shamsutdinov, X. Mo'minov. – Toshkent: Akademy Nashr; 2019.
4. M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008.
5. Botirova, S. (2023). Models of modern communication. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 74-84.
6. Botirova, S. (2022). DEVELOPMENT OF COMMUNICATION SKILLS OF 8TH GRADE STUDENTS IN THE PROCESS OF STUDYING THE HISTORY OF UZBEKISTAN. *Наука и технология в современном мире*, 1(7), 327-330.
7. Botirova, Z., Rasulova, G., & Sevara, N. (2023). ACTIVATION OF EDUCATIONAL AND COGNITIVE ACTIVITY OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN BY MEANS OF DIDACTIC GAMES ON THE EXAMPLE OF THE SUBJECT " ENGLISH LANGUAGE". *Research Focus*, 2(11), 76-79.
8. Botirova, S. (2022). TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS IN EIGHTH GRADE STUDENTS IN THE PROCESS OF STUDYING THE HISTORY OF UZBEKISTAN. *Академические исследования в современной науке*, 1(19), 240-243.